



**HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVA KONSTRUKSIYALARNING
STRUKTURAVIY KO‘RINISHLARI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.033>

Kuchiyev Malik Abdumannonovich
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ikkinchi chet tillar kafedrası dotsenti (PhD)
E-mail:kuchievmalik@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ilovali elementlarning tabiatga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri, ya’ni uning tarkibida frazeologizmlarning qo‘llanilish muammosiga to‘xtalib, ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning qo‘llanilishi va uning strukturasi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ilova konstruksiya, frazeologik birliklar, funksiya, stilistik funksiya, perifraz, takror, badiiy tasvir vositalari, murakkab sintaktik butunlik, qo‘shimcha ma’no.

Аннотация. В статье рассматривается одна из неотъемлемых особенностей наречных элементов, а именно проблема использования фразеологических единиц в их составе, и высказывается мнение об использовании наречных элементов в наречной конструкции и её структуре.

Ключевые слова: Наречная конструкция, фразеологические единицы, функция, стилистическая функция, перифраза, повтор, средства художественной выразительности, сложное синтаксическое целое, дополнительное значение.

Abstract. Article deals with one of the inherent features of adverbial elements, namely the problem of the use of phraseological units in their structure, and expresses its opinion on the use of adverbial elements in the adverbial construction and its structure.

Keywords: Adverbial construction, phraseological units, function, stylistic function, periphrasis, repetition, means of artistic expression, complex syntactic whole, additional meaning.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik sohasida ilova konstruksiyalarning lisoniy mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog‘liq struktur- xususiyatlar va ularning tuzilishini aniqlash muammosi ko‘pgina ilmiy izlanishlarning tadqiqot obyekti sifatida bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda. Ilova konstruksiya sintaktik-stilistik hodisa sifatida juda ko‘plab tillarda ilmiy izlanishlar doirasida murakkab sintaktik butunlikning strukturaviy guruhlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Murakkab

sintaktik butunlik, bu- matnning bir ko‘rinishidir. Hozirgi zamon nemis tili grammatik qurilishi sohasida bugungi kungacha juda ko‘plab diqqatga sazovor bo‘lgan ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa ham, uning ayrim tomonlari hali yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, biz ushbu maqolada frazeologizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiyalarning strukturaviy ko‘rinishlari haqida so‘z yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Keyingi yillarda tilshunoslikda ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar, ilovali elementlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqot ishlari salmog‘i ortib bormoqda. Bunday ilmiy izlanishlar tadqiqotchilar B.T.Tursunov, J.E.Potapova, Ye.A.Ivanchikova, Yu.S.Moraru, V.V.Vinogradov, T.E.Yanko, V.G.Admoni, Ye.V.Guliga, A.M.Bushuy va S.Ziyaeva va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, murakkab gap sintaksisining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lmish gapning ilovali elementlari va ularning strukturaviy guruhlari shu kungacha hozirgi zamon nemis badiiy adabiy tilida to‘lig‘icha o‘rganilmagan. Shu jihatdan aytish joizki, frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlar bugungi kungacha biron-bir ilmiy-tadqiqot ishining alohida tekshirish obyektiga aylanmagan.

Taniqli tilshunos olim B.T.Tursunov “Gapning ilovali elementlari, ya’ni frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlar murakkab gap sintaksisining eng harakatchan struktural turlaridan biri bo‘lib, u biz o‘rgangan badiiy matnlar doirasida ma’lum darajada keng yoyilishi bilangina emas, balki turli xil strukturaviy shakllanishga ega bo‘lishligi bilan, shuningdek, har xil ma’noviy vazifalarni, rang-barang stilistik funksiyalarni bajarib kelishi bilan alohida ta’kidlanishi lozim”– deb ta’kidlab o‘tadi [8; 142-143].

Ta’kidlash kerakki, frazeologizmlardan tashkil topgan ilovali elementlarning strukturaviy tuzilishi va grammatik ifodalanishi turli-tumandir. Ular ma’lum bo‘lakka yoki butun gapga nisbatan yolg‘iz yoki kengaygan shakllarda birikib kelishi mumkin. Ilovali elementlar strukturaviy tuzilishi ikki yoki undan ortiq komponentlardan iborat bo‘lib, bir vaqtning o‘zida turli xil leksik-grammatik vositalar yordamida kengaytirilishi mumkin.

Pech mit dem Wetter. Es hat in Strömen geregnet und die Spiele haben immer wieder unterbrochen werden müssen [Bredel 1981:298].

Aytish joizki, ilovali elementlar har doimgidek ma’lum bo‘laklarning mazmunini konkretlashtirish, to‘ldirish, aniqlash bilan birga sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar to‘g‘risida ma’lumot ham beradi. Yuqoridagi misolda namoyish etilgan ilovali elementlarning ma’no xususiyatlari yordamida asar qahramonlarining ichki dunyosi, go‘zalliklari, xatti-harakatlari tasvirlanmoqda va ochib berilmoqda.

Tilshunos olim J.E.Potapova o‘zining ilmiy tezislarida obrazli so‘z va ifodalar shaklida ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning ma’no xususiyatlari doimo ijobiy xarakterga ega bo‘lavermaydi, aksincha, salbiy xislatlarni ifodalab kelish uchun ham xizmat qilishi mumkin [7; 69].

1.Margarete sah vor sich den Dumpfen. Wichtigen Volkmar, die nackte brutale Gier seines Gesichts [Feuchtwanger 1954:130].

2.Die Kirche betrachtete ihre Ehe als Konkubiant. Ihren Sohn und Kronprinzen Meinhard als Bastard [Feuchtwanger 1954:186].

Mazkur misollarda ifodalangan ilovali elementlarning ma’no xususiyatlari yordamida salbiy xarakterga ega bo‘lgan xususiyatlar tasvirlanadi. Dastlabki misolda *Margaretaning oldida Volkmarning go’shtdor, dag‘al, ochko‘z yuzi* namoyon bo‘lsa; keyingi misolda esa, *uning nikohsiz tug‘ilgan o‘g‘li va shahzoda Maynhard* to‘g‘risida gap boradi.

O‘z navbatida, bu yerda tahlil ostiga olingan misollar frazeologizmlar orqali ifodalangan ilovali elementlar tomonidan bajarib kelinayotgan stilistik funksiyalarning nihoyatda xilma-xiligini alohida ta’kidlamogda.

Ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlar o‘xshatish vositasida ifodalanadi. Bunda ilovali elementlarga xos bo‘lgan stilistik funksiya ayrim bo‘laklarning ma’no xususiyatlarini, ya’ni ilovali elementlarning ma’no xususiyatlariga qiyos qilish orqali sodir bo‘ladi.

In seiner eigenen Reihe, neben der großen Frau ging ein viel kleiner Mensch. Trotz Wärme im Pullover, einem Flußschiffer ähnlich [Seghers 1963:542].

Ba’zan ilovali elementlarni ma’lum bo‘lakka nisbatan boshqarib kelayotgan stilistik funksiyalari kengayishi mumkin.

Shu o‘rinda taniqli olim Y.A.Ivanchikovaning quyidagi fikrlarini keltirish lozim deb hisoblaymiz: “frazeologizmlar orqali ifodalangan ilovali elementlar o‘zlariga xos ohangga, to‘xtamga, mantiqiy urg‘uga va semantik vazifalarga ega bo‘ladi. Ularga xos bo‘lgan mantiqiy ajratish ohangda ham o‘z ifodasini topadi: ilovali elementlar ma’lum gap bo‘laklaridan farqlanuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi” – deb ta’riflaydi [5; 127]. Ilovali elementlar ma’lum bo‘lakka nisbatan qo‘shimcha ma’no bildirib, uning mazmunini konkretlashtiradi, to‘ldiradi, izohlaydi, aniqlaydi. Ba’zida ilovali elementlarning qo‘shimcha ma’nosi umumlashtiruvchi xarakterga ham ega bo‘lishi mumkin: ilovali elementlar ma’lum bo‘lakdan vergul, ba’zida nuqtali vergul yoki ikki nuqta bilan ajratiladi. Ilovali elementlar bilan ma’lum bo‘laklar bir-birlariga nisbatan turli xil sintaktik munosabatda bo‘lishadi. Buning natijasida ilovali elementlarning ko‘pchiligi ma’lum bo‘laklarning mazmuni bilan aloqada bo‘lsa, ayrimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapning mazmuni bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishadi.

Yuqoridagi fikr-mulohozalarni ma’qullagan holda taniqli tilshunos Yu.S.Moraru ilova konstruksiyalarni struktur jihatdan guruhlariga ajratishda, ilovadagi asosiy gapning strukturasi hisobga olish muhim deb hisoblaydi. U ”sodda strukturali ilova konstruksiyani tashkil etuvchi komponentlarning soni asosiy gapda ham, ilova qismida ham teng bo‘lishi kerak, ya’ni bitta gap yoki sintagmadan oshmasligi lozim. Demak, murakkab strukturali ilova konstruksiyalarni tashkil etuvchi komponentlar, ilovali elementda ham, asosiy ifoda tarkibida ham ikkitadan kam bo‘lmasligi shart” – degan fikrni ilgari suradi [6; 106-114].

Tahlil va natijalar. Ushbu fikr-mulohozalarni inobatga olib, bu yerda ana shu murakkab strukturaga ega bo‘lgan ilova konstruksiyalar to‘g‘risida mulohaza yuritishga o‘tamiz va misollar namunasida ko‘rib chiqamiz.

I.Tarkibida iloval elementlar soni ikki va undan ortiq bo‘lgan ilova konstruksiyalar:

1. Die Fidelioaufführung - großartig. Phantastische Sänger. Wirklich erste Garnitur! [Herbert 1972:92].

2. Sie macht nicht auf. Und weiter Klingeln, Rufen, Bummern... . Solche Affen, die !... Die können mir alle den Buckel lang rutschen [Selbman 1971:435].

O‘zlarining ko‘rinishi jihatdan ushbu yuqorida keltirilgan misollarda bayon qilingan iloval elementlar 1-, 2-raqamli misollardagi iloval elementlarni takrorlab kelganday. Umuman olganda, bu iloval elementlar ham murakkab strukturaviy iloval elementlardir. Bunday iloval elementlar bir-biriga faqatgina strukturaviy xususiyatlari bilan o‘xshaydi, chunki ular murakkab strukturaviy iloval elementlardir. Biroq, kommunikativ funksiyalari nuqtayi nazaridan qandaydir o‘zlariga xos xususiyatga ega. Bu xususiyat 2- raqamli misoldagi iloval elementning konkretlashtirish va o‘sha misoldagi iloval elementning umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lishi bilan ifodalandi. Iloval elementlarga xos bo‘lgan bunday xususiyat, ularning asosiy ifodaga nisbatan bildirilayotgan kommunikativ funksiyalarini faqatgina konkretlashtiribgina qolmasdan, balki uni umumlashtirishi ham mumkin. Iloval elementlar kommunikativ funksiyalarining bunday variantivligi, asosan ba’zi leksik-grammatik komponentlarning joy almashinishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bunday vaziyat iloval elementlarning ham stilistik, ham sintaktik funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ilova konstruksiyalar o‘zida asosiy fikrni (bosh gapni) aniqlashtiruvchi, izohlovchi va rivojlantiruvchi qo‘shimcha yuzaga keladigan fikr vazifasini bajaruvchi o‘ziga xos sintaktik hodisani ifodalaydi. Bunday sintaktik struktura (tuzilish) ikki qismdan tashkil topadi. Birinchisi asosiy xabarni ifodalaydi, ikkinchisi esa uning ortidan birinchidan keyin, ya’ni asosiy ifodaning mazmuniga bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha xabarga ega bo‘ladi. Bunday struktura nutqdagi funksional qo‘llanish birligi bilan birlashtiriladi, ularning yordami bilan so‘zlovchining ongi va nutqida bosh gapdan, asosiysi aytilgandan keyin paydo bo‘lgan fikr uzatiladi. Tilshunos olim V.V.Vinogradov ilova konstruksiyalarni “jumlar ko‘pincha birdaniga bitta semantik sathga joylashmaydigan, lekin birikishning uyushgan zanjirini hosil qiladigan siljuvchi konstruksiyalar” – deb ham ataydi [4; 406].

Nemis tilida ilova konstruksiyalar, nafaqat og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi, balki nutqning boshqa funksional uslublarida emotsional-ekspressiv funksiyada (badiiy adabiyotda va publitsistikada) nutq qaratilgan shaxs (adresat) tomonidan ma’lum bir faoliyatga e’tiborni va istakni jalb qilish uchun matnda ham keng qo‘llanmoqda.

Shu jihatdan, tilshunoslikda gap tarkibidagi kommunikativ birlik sifatidagi so‘z va so‘z birikmalarining muloqot jarayonida qo‘llanilish holatini T.E.Yanko [9; 28] ta’rifi bilan ifodalaganimizda, ba’zi bir so‘z va iboralar matnda ajratish (ilova) hodisasiga uchraydi, ularning bu xususiyati orqali tinglovchiga tasvirlanayotgan hodisaning ma’nosi aniq tushuntiriladi, voqea konkretlashtiriladi, hajmi leksik birliklar bilan kengaytirib to‘ldiriladi. Germanist olimlar A.M.Bushuy va S.Ziyaevalar [2; 9] fikriga qaraganda, ajratilgan bo‘laklar gap tarkibini yangi leksik birliklar bilan boyitish kabi funksiyalarni bajarib, ma’lum bir gap

bo‘lagini asosiy bo‘lagidan ajratib ishlatilishi bilan bir qatorda, gap tarkibidagi qaysi bir gap bo‘lagini gap qurilishining boshqa bir noodatiy o‘rniga joylashtirgan holda ham ifodalanilishi mumkin. Shu fikrga hamohang ravishda taniqli olim V.G.Admoni “ma’lum bo‘lakning ma’nosi qo‘shimcha so‘z yoki so‘z birikmalari yordamida soddalashtiriladi, ma’nosi o‘xshash so‘zlar bilan ifodalanadi, chet tilidan kiritilgan so‘zlar bo‘lsa tarjima ma’nosi qo‘llanadi yoki qisqartma so‘zlar bo‘lsa kengaytirilgan shakllari bilan tushuntiriladi” – deb ta’kidlaydi [1; 19]:

1. Alles in allem war die Aufführung ein Erfolg. Wir können mit dem Vertrag alles in allemzufrieden sein. Adelbert benötigte zu seinen Entscheidungen, die er nach kurzem Abwägen unwiderruflich fällte, alles in allem drei Viertelstunden [Duden 2013:39].

2. Das ist doch allerhand, daß aus den Toten jetzt auch noch politisches Kapital geschlagen wird. Ich sage euch, daß der einfache Soldat hier vorn so aushält, das ist allerhand! [Remarque 1967:37].

3. Er wurde in Acht und Bann getan. Der König ließ ihn und seine Familie in Acht und Bann erklären. Eine Reihe von anderen nicht ganz unbekannten Kompatrioten wurde zusammen mit mir in Acht und Bann getan [Duden 2013:33].

Tilshunos olim Yu.V.Vannikov [3; 125] – gap tarkibidagi ilovali elementning semantik ma’nosini tushuntirish, konkretlashtirish va aniqlash funksiyalariga qo‘shimcha holda voqea-hodisani tasvirlashda gap bo‘laklarining ilova qilish hodisasiga tushish holatini quyidagi shakllarga ajratib ko‘rsatishni taklif etadi:

Aytib o‘tish lozimki, nutqni bayon qiluvchining o‘z fikrini ilovali elementlarni qo‘llagan holda ifodalashi ma’lum darajada uning nutqiy madaniyatini ham bildiradi. Shunday qilib, bunday holat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) ilovali elementlarni qo‘llash orqali fikrni batafsil ifodalashga, keng ma’noni ma’lum so‘zlar yordamida ixchamlashtirib berishga imkon tug‘diradi. Bu esa matnda ilovali elementlarning stilistik roli katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi;

2) asosiy gap bo‘laklarining gapda ilovali elementlar bilan ifodalanishi fikrni ochiq, aniq, konkret bayon etish bilan birga kitobxonda berilayotgan ma’lumotni tinglash his-hayajonini uyg‘otadi;

3) asosiy gap bo‘laklarining ilovali elementlar sifatida ifodalanish xususiyati yordamida fikrda jonlilik, obrazlilik hosil bo‘ladi va buning natijasida nutqning ifodali bo‘lishi ta’minlanadi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan misollar tahlilidan biz ikki turdagi intentsiyani aniqlay olamiz, birinchisi, axborot, ma’lumotni uzatish niyatini, asosiy narsani ta’kidlash, aniqlashtirish, konkretlashtirish, fikrni kuchaytirish o‘z hukmiga ega bo‘lgan ishonch, xulosa chiqarish bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchisi esa, kitobxonning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilish bilan bog‘liq niyatini hosil etadi.

Xulosa va takliflar. Frazelogizmlar ishtirok etgan ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlar soni bittani tashkil etsa, bunday konstruksiya sodd structurali ilova konstruksiya deb yuritiladi. Ilova konstruksiyalarni tashkil etadigan ilovali elementlar ikki

yoki undan ortiq bo‘lishi kuzatiladi, bunday konstruksiyalar murakkab strukturali ilova konstruksiyalar hisoblanadi. Frazеologizmlardan tashkil topgan bunday ilovalі elementlar asosiy ifoda tarkibidagi ma’lum gap bo‘laklarining ma’nosini to‘ldirish, aniqlashtirish uchun qo‘shimcha ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Ленинград: Наука, 1973. – 366 с.
2. Бушуй А.М., Зияева С. Ажратилган сўз бирикмаси инглиз тили синтактик сатҳида деривацион ҳодиса сифатида // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004, 3(12). – Б. 9;
3. Ванников Ю.В. Синтаксис речи и синтаксические особенности русской речи. – Москва: Русский язык, 1979. – 296 с.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Наука, 1977. – 485 с.
5. Иванчикова Е.А. Лексический повтор как экспрессивный приём синтаксического распространения // Мысли о современном русском языке. – Москва, 1969. – С. 127.
6. Морару Ю.С. О некоторых типах присоединительных конструкций (на материале современного испанского языка) // Грамматические и лексические исследования по романским и германским языкам. – Кишинев, Штиинца, 1982. – С. 106-114.
7. Потапова Ж.Е. Стилистические функции многофокусной повторной номинации в конструкции обособленного приложения. – Харьков: Вестник Харьковского государственного университета, 1982, № 231, – С. 69.
8. Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи: Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Санкт-Петербург, 1993. – 465 с.
9. Янко Т. Е. О понятиях коммуникативной стратегии // Вопросы языкознания. – Москва, 1999, № 4. – С. 28.
10. 92. Duden Band 11. Redewendungen Wörterbuch der deutschen Idiomatik. – Berlin: Dudenverlag, 2013. – 928 S.
11. Feuchtwanger Lion. Die häßliche Herzogin Margarete Maultasch. –Berlin: Aufbau Verlag, 1954. – 310 S.
12. Herbert Otto. Zum Beispiel Josef. – Berlin und Weimar: Aufbau Verlag, 1972. – 285 S.
13. Remarque Erich Maria. Im Westen nichts Neues. – Berlin: Ullstein Bücher, 1967. – 336 S.
14. Seghers Anna. Die Entscheidung. – Berlin: Aufbau-Verlag, 1963. –597 S.
15. Selbmann Fritz. Die Söhne der Wölfe. – Halle: Mitteldeutscher Verlag, 1971. – 597 S.